



BADIIY MATNDA RANG IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Araqulova Fotima G'ofurjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya *Mazkur tadqiqot badiiy matnda rang ifodalovchi birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda rang bildiruvchi so'z va birikmalarning semantik, stilistik hamda ramziy ma'nolari tahlil qilinadi. Shuningdek, rang tasvirining muallif individual uslubini shakllantirishdagi o'rni, obrazlilikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnning estetik va emotsional ta'sirini ochib berishga xizmat qiladi.*

Аннотация *Данное исследование посвящено лингвопоэтическому анализу единиц, выражающих цвет, в художественном тексте. Рассматриваются семантические, стилистические и символические особенности цветообозначений, их роль в создании художественного образа и авторского стиля. Особое внимание уделяется функции цветовых средств в усилении выразительности и эмоционального воздействия текста. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию эстетической природы художественного произведения.*

Annotation *This study is devoted to the linguopoetic analysis of color-expressing units in literary texts. It examines the semantic, stylistic, and symbolic features of color terms and their role in shaping imagery and the author's individual style. Special attention is paid to the function of color in enhancing expressiveness and emotional impact. The findings contribute to a deeper understanding of the aesthetic and artistic nature of literary works.*

Badiiy matn tilning eng nozik va ta'sirchan shakli bo'lib, unda so'zlar nafaqat ma'no, balki estetik yuk ham tashiydi. Rang ifodalovchi birliklar esa shu estetik vositalarning muhim qismi hisoblanadi. Ranglar orqali muallif voqelikni tasvirlaydi, qahramon ruhiyatini ochadi va o'quvchiga ma'lum hissiy ta'sir ko'rsatadi. Rang bildiruvchi so'zlarning lingvopoetik tahlili ularning nafaqat leksik, balki badiiy funksiyasini ham ochib berishga xizmat qiladi. Vaqt va zamonning o'tishi bilan badiiy adabiyotda rangning mazmun-mohiyati chuqurlashib, qo'llanish doirasi ham kengayib borganligini ko'ramiz. Ranglar obrazni ochib beruvchi bir detalligi bilan birga yozuvchi psixologiyasini ham ochuvchi omil sifatida qaraydi. Biror badiiy asar tahlil qilinar ekan ranglarni obrazning xarakteriga, turmush tarziga aloqadorligini ko'ramiz. Bu aloqadorlik o'qirmanga tahlil uchun asos bo'ladi. Bundan tashqari, ranglar jodkorning yoki qahramonning psixologiyasi va ayni damdagi kayfiyatini ham o'quvchiga yetkazib beruvchi omil hisoblanadi.



Rang bildiruvchi birliklar va ularning lingvistik xususiyatlari

Rang ifodalovchi birliklar tilshunoslikda sifat turkumiga kiradi va predmetning tashqi belgisini ifodalaydi. Masalan: oq, qora, qizil, ko‘k, yashil kabi so‘zlar asosiy rang nomlaridir. Shu bilan birga, murakkab va ko‘chma ma’nodagi rang birliklari ham mavjud: oppoq, qip-qizil, moviy, zangori, nimrang va boshqalar.

Lingvistik jihatdan rang birliklari:

sodda (oq, qora),
yasama (qizg‘ish, ko‘kimtir),
takroriy (qip-qizil, oppoq) shakllarda uchraydi.

Rang birliklarining badiiy matndagi funksiyasi

Badiiy matnda ranglar faqat tasviriy vosita bo‘lib qolmay, balki chuqur ramziy ma’no ham kasb etadi. Masalan:

oq rang — poklik, begunohlik ramzi;
qora rang — g‘am, qayg‘u, ba‘zan yovuzlik timsoli;
qizil rang — sevgi, ehtiros yoki xavf belgisi;
yashil rang — hayot, yangilanish ifodasi.

Muallif ranglardan foydalanib obrazlarni jonlantiradi. Masalan, “qora tun” birikmasi oddiy vaqtni emas, balki vahima yoki sirli muhitni anglatishi mumkin.

Lingvopoetik tahlilning mohiyati

Lingvopoetik tahlil — bu til birliklarining badiiy matndagi estetik vazifasini o‘rganishdir. Rang bildiruvchi so‘zlar bu jarayonda:

-obraz yaratadi;
-kayfiyatni belgilaydi;
-matnning umumiy ohangini shakllantiradi.

Masalan, “oppoq qor” birikmasi nafaqat rangni, balki sovuqlik, sokinlik va poklik hissini ham uyg‘otadi. Yoki “qip-qizil yuz” ifodasi hayajon yoki uyatni kuchaytirib ko‘rsatadi.

Ranglarning konnotativ ma’nosi

Rang birliklari ko‘pincha konnotativ (qo‘shimcha) ma’no kasb etadi. Bu esa ularning lingvopoetik qiymatini oshiradi. Masalan:

“qora kunlar” — og‘ir hayotiy davr,
“oq yo‘l” — yaxshi tilak,
“ko‘k osmon” — erkinlik timsoli.

Bu yerda ranglar bevosita emas, balki ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

Rang birliklarining individual uslubdagi o‘rni

Har bir yozuvchi ranglardan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Bu esa uning individual uslubini belgilaydi. Ba’zi ijodkorlar yorqin ranglarga urg‘u bersa, boshqalari xira ranglar orqali dramatik kayfiyat yaratadi. Shu sababli rang birliklari muallif poetikasining muhim elementi hisoblanadi. Poetik nutq rang va ramz orqali shaffoflashadi. Usmon Azim she’riyatida ham rang simvolikasi ko‘p uchraydi.



Ijodkorning mahorati u tanlagan rangga ma'no yuklashdan anglashiladi. Usmon Azimning "Grafika" she'rida ikki rang, ya'ni simvolik (ramziy) rang orqali ikki obrazning psixologiyasi, ko'rinishi va xarakteri ochib berilgan:

Ko'zing qaro sening, qoshlaring qaro,
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.
Qo'lingdagi ta'na toshlaring qaro,
Menga g'amgin boqib turishlaring oq.

Qora rang salbiy ma'noda ko'p qo'llaniladi, qora qorong'ilik, yovuzlik ramziga aylangan bo'lishiga qaramay yuqoridagi she'rda go'zallikni ochib berish uchun xizmat qilgan. Zero, "Yana kishi go'zalligining asosi ham qora qosh, qora ko'z ekanligiga ham to'xtalib o'tadi" -, degan edi. Anbar Otin "Qarolar falsafasi" asarida. Ko'rinish turibdiki, yuqoridagi she'rda ijodkor qora rangga zid ma'noda oq rangni qo'llab, obrazning tashqi va ichki go'zalligini ko'rsatadi. Uchinchi qatordagi "qo'lingdagi ta'na toshlaring qaro" degan so'zlar bilan ayriliq ichida o'rtanayotgan oshiqning vijdon azobi ham, aybdorlik hissi tuyushni ham obrazli ifodalagan. Oshiq ayriliqdagi yoridan butunlay sohib ketmaganligini "begonayor"ning hali ham go'zalligini "Menga g'amgin boqib turishlaring oq" misrasidan anglash mumkin. Shoir bu yerda oq rangi orqali tuyg'ularini yetkazadi. Oq rangga shu ma'noni mohirona yuklaydi. G'amgin inson aslida yuzi porlamagan insondir. Ammo shu g'amgin yuzga eng pok va yorqin rangni mos ko'rib, oshiq tuyg'ularini o'rtaga chiqaradi.

Usmon Azim yana bir she'rida qora rangga murojaat qiladi. Bu yerda ham qora o'z ramziy ma'nosida keladi.

Yolg'izlikning ulkan zalvori,
Bosar qalbim tortadi mayda,
Endi qora tunga yolvorib,
Shivirlayman-qaydasan, qayda?

Ko'rinish turibdiki, ayriliqdagi obrazning holati tun, bedor. Zotan, tun qora, ammo oshiqning tushkunligini, azobdaligini qora rang ochib berishga xizmat qiladi. "Endi tunga yolvorib" deganida oddiy va ta'siri bo'sh bo'lar edi. "Qora tun" esa bevosita oshiqning hayotiga ham daxldor. Yana bir o'rinda ijodkor:

Sen tongda uyg'onding, gazga qo'yding choy,
Bu mehr men uchun emas hoynahoy.
Sen oppoq ko'ylakka urasan dazmol,
Bu ishni men uchun qilmog'ing mahol.

Bilamizki, oq rang soflik, tozalik ramzi. Shoir bu o'rinda ham oq rangdan yorning go'zal obrazini ochish uchun foydalangan. Ma'shuqa aynan oq, oq bo'lganda ham oppoq ko'ylakni dazmol qiladi. Aslida ijodkor ko'ylakning rangini yozmasa ham bo'lar edi, yoki ko'k, sariq, qizil kabi har qanday rangni qo'llashi ham mumkin edi -yu, ammo u ranglar yorning oshiq uchun sof va toza ekanligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu yerda oppoq ko'ylakka dazmol urishi va bu ishni oshiq uchun hech qachon qila



olmasligi armon aralash oq orzu ekanligini yuqoridagi rang orqali ko'rsatib turibdi. Hayotning ijobiy, baxtli tarafi oq rang bilan ifodalangani singari, ayriliqdagi oshiq uchun yor o'sha ushalmagan bo'lsa-da, hayotning oq tomonidaligiga ishora qilinyapti.

Xulosa qilib aytganda bunday rang-barang sifatlardan foydalanib, hayotning turli yo'sinlarini murakkabliklarini ochib berish, ifodalash yozuvchining mahoratini ko'rsatadi. Usmon Azim ham o'z ijodida qay o'rinda va necha marta rangga murojaat qilsa, o'sha rangning yangi imkoniyatlari va ma'nolarini ko'rsatishining guvohi bo'lyapmiz. Badiiy matnda rang ifodalovchi birliklar muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali muallif nafaqat tasvir yaratadi, balki chuqur ma'no va hissiy ta'sirni ham yetkazadi. Ranglarning ramziy va konnotativ xususiyatlari matnning badiiy qimmatini oshiradi. Shunday qilib, rang birliklarini lingvopoetik jihatdan o'rganish badiiy matni chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 11-sinf adabiyot darsligi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent 2018. B-193
2. 11-sinf adabiyot darsligi 2-qism "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
Toshkent, 2018. B-95
3. <https://tafakkur.net/to'yganmidim shodlikni ichib/Usmon Azim.uz>
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/Usmon Azim she'rlar.html>
5. Badiiy matn lingvopoetikasi. Ma'rufjon Yo'ldoshev.
6. Internet malumotlari.